



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASINING  
BUYRUG'I**

20~~22~~ yil “17” mart

Nº 90

Toshkent sh.

**2022-yil “Avitsenna izdoshlari” II-Xalqaro talabalar fan olimpiadasini  
onlayn shaklda tashkil etish va o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirining 2020-yil 1-may “Oliy ta'lif muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan respublika fan olimpiadasini onlayn shaklda tashkil etish va o'tkazish to'g'risida”gi 275-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. 2022-yil 25-mart kuni Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o'rirlarda – TTA) respublika va xorijiy tibbiyot oliy ta'lif muassasalarining 1-6 kurs talabalari o'rtasida o'tkaziladigan “Avitsenna izdoshlari” II-Xalqaro fan olimpiadasi (keyingi o'rirlarda – Xalqaro olimpiada) onlayn shaklda o'tkazilsin.

2. Xalqaro olimpiadaga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish uchun mas'ul etib Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori F.L.Azizova va Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikovalar belgilansin.

3. Tibbiyot oliy ta'lif muassasalari talabalari o'rtasida TTAda o'tkaziladigan “Avitsenna izdoshlari” II Xalqaro fan olimpiadasi” nizomi (keyingi o'rirlarda – Nizom) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. TTAda faoliyat yuritayotgan barcha professor-o'qituvchilari va bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan talabalar mazkur Nizom bilan tanishtirilsin.

5. Xalqaro olimpiada dasturi 2-ilovaga muvofiq, Xalqaro olimpiadani o'tkazish bo'yicha Tashkiliy komissiya tarkibi 3-ilovaga muvofiq, Xalqaro olimpiada hakamlar hay'at a'zolari tarkibi 4-ilovaga muvofiq, Xalqaro olimpiadani o'tkazish bo'yicha mas'ul komissiyaga tashkiliy ko'mak ko'rsatish bo'yicha jalb qilinayotgan TTA talabalari ro'yxati 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikovaga:

**Kiritildi:**

Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

F.B.Abdumalikova

**Kelishildi:**

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

Sh.A.Boymuradov

Ilmiy ishlari va innovasiyalar  
bo‘yicha prorektor

F.L.Azizova

Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor

F.B.Toshpulatov

Bosh buxgalter

A.Sh.Yulchiev

Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i

M.M.Jafarov

Yuriskonsult

B.N.Shukurov

- joriy yilning 24-mart kuniga Xalqaro olimpiadada ishtirok etadigan TTA talabalari ro'yxati shakllantrilsin va ularni Xalqaro olimpiadada ishtirok etishiga hamda darsdan ozod qilish to'g'risidagi bo'yruq loyihasi TTA rektoriga taqdim qilinsin;

- belgilangan ro'yxat bo'yicha Xalqaro olimpiadada ishtirok etishi ko'sratilgan TTA xodimlari va talabalarining ishtiroki ta'minlansin.

7. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i A.K.Musaxonovga:

- Xalqaro olimpiadani o'tkazish jarayonida dasturiy ta'minot to'liq ta'minlab borilsin.

8. Moliya - iqtisod ishlari bo'yicha prorektor J.K.Xakberdiev va Bosh buxgalter

A.Sh.Yulchievlarga:

- Xalqaro olimpiadani onlayn tarzda o'tkazilishini inobatga olib, Xalqaro olimpiada bosqichlarini xolis, sifatli va shaffof o'tkazish uchun videoroliklar, konselyariya buyumlari bilan ta'minlash, bannerlar, diplom va sertifikatlar tayyorlash hamda bezaklar va esdalik sovg'alar xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha sarf-xarajatlar TTAning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin.

- ishtirokchilarning barchasiga berilishi lozim bo'lgan esdalik sovg'alar, sertifikatlar va g'olib bo'lgan talabalar diploma xalqaro pochta xizmatlari orqali yetkazish choralari qo'rilsin.

9. O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga:

- mazkur buyruqning 5-ilovasida nomlari ko'sratilgan TTA talabalar darsdan ozod qilinsin va ularga o'rtacha ballar qo'yib berilsin.

10. Matbuot kotibi G.T.Mirzayevaga:

- iqtidorli talabalar bilan ishlashning muhim tarbiyaviy ahamiyatini e'tiborga olib, Xalqaro olimpiadada g'olib bo'lgan talabalar to'g'risidagi ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalari hamda TTAning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida yoritilsin.

11. Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikovaga:

- Xalqaro olimpiada yakunlanganidan so'ng unga oid ma'lumotlar 5 kun muddat ichida Sog'liqni saqlash vazirligining Fan va ta'lim boshqarmasiga hisobot topshirilsin;

- Xalqaro olimpiada yakunlanganidan so'ng unda g'olib bo'lgan TTAning talabalar Nizomda belgilangan tartib va miqdorda rag'batlantirish to'g'risida bo'yruq loyihasi bir hafta mobaynida TTA rektoriga taqdim etilishi ta'minlansin.

12. Mazkur buyruqning ijrosini ta'minlash Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



A.K.Shadmanov

**Kiritildi:**

Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

F.B.Abdumalikova

**Kelishildi:**

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

Sh.A.Boymuradov

Ilmiy ishlar va innovasiyalar  
bo‘yicha prorektor

F.L.Azizova

Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor

F.B.Toshpulatov

Bosh buxgalter

A.Sh.Yulchiev

Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i

M.M.Jafarov

Yuriskonsult

B.N.Shukurov

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
2022 yil "17 mart" dagi  
90-sonli buyrug'iga I-ilova

**Toshkent tibbiyot akademiyasida O'zbekiston Respublikasi va xorijiy oliy ta'lif  
muassasalari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan  
"Avitsenna izdoshlari" II Xalqaro fan olimpiadasini o'tkazish tartibi to'g'risida  
NIZOM**

**I-bob. Umumiy qoidalar**

1.1. Mazkur Nizom Toshkent tibbiyot akademiyasida (keyingi o'rinnarda – TTA) tibbiyot oliy ta'lif muassassalari (keyingi o'rinnarda – OTM) talabalari o'rtasida xalqaro onlayn fan olimpiadasini (keyingi o'rinnarda – Xalqaro olimpiada) tashkil etish, o'tkazish hamda unda qatnashish va Xalqaro olimpiada g'oliblarini aniqlash tartibini belgilaydi.

1.2. Xalqaro olimpiadani o'tkazishga TTA Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i, Xalqaro olimpiada tashkiliy komissiya, Xalqaro bo'lim va ta'lif muassasalarida elektron ta'lif va axborot resurslar markazi mas'ul hisoblanadi.

1.3. Xalqaro olimpiada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-martdag'i "Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 176- sonli qarorida belgilangan talablarni inobatga olib TTA va barcha oliy ta'lif muassassalari talabalarining fundamental va umumkasbiy fanlar bo'yicha o'z qobiliyatlarini namayon etish, rivojlantirish va ularning iste'dodlarini ro'yobga chiqarishga keng imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan.

1.4. TTA buyrug'i asosida Xalqaro olimpiadani tashkil etish va uni o'tkazish bo'yicha TTA boshqaruv xodimlari va professor-o'qituvchilaridan iborat Tashkiliy komissiya (keyingi o'rinnarda – Tashkiliy komissiya) tarkibi tasdiqlanadi.

1.5. Tashkiliy komissiya tarkibi quyidagilardan iborat bo'ladi:

TTA rektori – Tashkiliy komissiya raisi;

TTA Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor – Tashkiliy komissiya rais o'rinnbosari;

TTA Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i – Tashkiliy komissiya mas'ul kotibi.

O'quv ishlar bo'yicha prorektor – Tashkiliy komissiya a'zosi;

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor – Tashkiliy komissiya a'zosi;

TTA "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" boshlang'ich tashkiloti vakili – Tashkiliy komissiya a'zosi;

TTA fakultetlari dekanlari – Tashkiliy komissiya a'zosi;

TTA kafedra mudirlari – Tashkiliy komissiya a'zosi.

1.6. Tashkiliy komissiya Xalqaro olimpiadaning zaruriy vosita, buyumlar, texnik va axborot ta'minotini tashkil etish, Xalqaro olimpiada g'oliblari va ishtirokchilarini rag'batlantrish vazifalarini bajaradi.

1.7. Xalqaro olimpiada tashkilotchilari va ishtirokchilar uchun yagona axborot portalini yaratish, uning uzluksiz ishlashini ta'minlash hamda onlayn test natijalarini vaqt

jihatidan tahlil qilish TTA Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi tomonidan amalga oshiriladi.

1.8. Xalqaro olimpiadada O'zbekiston Respublikasi hamda xorijiy OTMning bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan barcha iqtidorli talabalar ishtirok etishlari mumkin.

1.9. Mazkur nizomda belgilangan fanlar bo'yicha o'tkaziladigan Xalqaro olimpiadada bellashuvlari onlayn test, vaziyatli masala topshiriqlari va blits so'rov ko'rinishida o'tkaziladi.

2.0. Xalqaro olimpiadani adolatlari o'tkazilishini nazorat qilish hamda natijalarni tahlil etish Tashkiliy komissiya tomonidan TTA Raqamli ta'lim texnologiyalari markazining tahliliy ma'lumotlariga asosan amalga oshiriladi.

## **II-bob. Xalqaro olimpiada o'tkaziladigan fanlar va ularning tillar kesimidagi turlari**

2.1. Xalqaro olimpiada fanlari Mas'ul komissiya tomonidan ekspertizadan o'tkaziladi.

2.2. Xalqaro olimpiada o'tkaziladigan fanlar

### **I. Bo'lim - Terapiya:**

1. Ichki kasalliklar;
2. Fakultet va gospital terapiya
3. Ichki kasalliklar propedevtikasi
4. Klinik farmakologiya

### **II. Bo'lim - Tor klinik mutaxassisliklar:**

1. Psixiatriya
2. Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya
3. Nevrologiya, Tibbiy psixologiya kursi bilan
4. Dermatovenerologiya
5. Yuqumli kasalliklar
6. Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi

### **III. Bo'lim - Jarrohlik:**

1. Anesteziologiya va reanimatsiya
2. Fakultet va gospital jarrohlik
3. Travmatologiya
4. Oftalmologiya

### **IV. Bo'lim - Ona va bolani himoya qilish:**

1. Akusherlik va ginekologiya
2. Bolalar kasalliklari
3. Bolalar kasalliklari propedevtikasi

### **V. Bo'lim - Tibbiy biologiya:**

1. Tibbiy-biologik kimyo
2. Patologik anatomiya
3. Tibbiy biologiya

4. Anatomiya va klinik anatomiya
5. Tibbiyotda axborot texnologiyalari
6. Biofizika
7. Klinik laboratoriya diagnostikasi

#### **VI. Bo‘lim - Fundamental fanlar:**

1. Ijtimoiy fanlar
2. Chet tillari
3. Pedagogika va psixologiya
4. Sog‘liqni saqlash, sog‘liqni saqlash tashkilotlari
5. Sud-tibbiyot ekspertizasi

#### **VII. Bo‘lim - Tibbiy-profilaktika:**

1. Atrof-muhit gigiyenasi
2. Kommunal gigiena va mehnat salomatligi
3. Epidemiologiya
4. Bolalar, o‘smlar gigienasi va oziq-ovqat gigiyenasi

2.3. Xalqaro olimpiada o‘tkaziladigan fanlar bo‘yicha fan dasturiga mos holda test va topshiriqlarning elektron ba’zasi shakllantirib, ekspertizadan o‘tkazilganidan so‘ng Xalqaro olimpiadani o‘tkazish to‘g‘risida TTA buyrug‘i qabul qilinadi va bu to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari, TTAning veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida e’lon beriladi.

2.4. Test va topshiriqlarni to‘g‘ri va mantiqiy tuzilganligiga Tashkiliy komissiya javobgar hisoblanadi.

2.5. Tashkiliy komissiyaning a’zolari bo‘lgan kafedra mudirlari (keiyngi o‘rinlarda – Fan mas’ullari) o‘zlari rahbarlik qilib kelayotgan kafedralarda mazkur Nizomning 2.2.-bandida belgilangan fanlar bo‘yicha Xalqaro olimpiada test savollari, vaziyatli masalalar va blits so‘rovda beriladigan savollarni tuzish hamda ularni elektron havolalarini ishtirokchi talablarga yuborish bo‘yicha mas’uldirlar.

2.5. Tashkiliy komissiya test va topshiriqlarni mahfiyligini ta’minlaydi.

2.6. Tashkiliy komissiya fanlar bo‘yicha dastur, baholash mezonlari hamda mazkur Nizomni elektron pochta orqali O‘zbekiston va xorijiy tibbiyot OTMlarga yuboradi.

2.7. Xalqaro olimpiada o‘zbek, rus va ingliz tillarida o‘tkaziladi.

#### **III-bob. Xalqaro olimpiadani o‘tkazish tartibi va bosqichlari**

3.1 Xalqaro olimpiada joriy yilning 25 mart kuni o‘tkaziladi.

3.2. Xalqaro olimpiadaning yuqori saviyada o‘tkazilishida shaxsan OTM rektori mas’ul hisoblanadi.

3.3. Xalqaro olimpiadada ishtirok etish istagini bildirgan talabalar uni o‘tkazish kunidan uch kun oldin TTAning rasmiy veb saytida o‘tkazilayotgan Xalqaro olimpiada to‘g‘risdagi e’londa ko‘rsatilgan elektron pochta manziliga shaxsini tasdiqlovchi hujjat, talabalik sinov daftarchasi nusxasi, telefon raqami, elektron pochta manzili va ilmiy rahbari haqidagi ma’lumotlar yuvorilishi lozim.

Xalqaro olimpiadada tegishli fanni yaxshi yoki a’lo baholarga yakunlagan bakalavriat bosqichi talabalari ishtirok etadi.

Xalqaro olimpiada tashkilotchisi tomonidan ishtirokchiga jarayonga qatnashishi uchun yuboriladigan havolani yuborish jarayonida muammolar kelib chiqmasligi uchun

ishtirokchilar o'zлari tomonidan yuklanadigan ma'lumotlarning to'g'rilingiga ishonch hosil qilishlari kerak.

3.4. Talabalar o'zлari tomonidan tanlagen fanlar bo'yicha Xalqaro olimpiadani o'tkazish sanasi va vaqt bo'yicha tashkilotchining platformasiga kirishlari lozim bo'ladi.

Xalqaro olimpiada ZOOM platformasida o'tkaziladi.

Xalqaro olimpiada o'tkazish jarayonlari YouTube platformasida to'g'ridan to'g'ri onlayn translyasiya tarzida namoyish etiladi.

3.5. 30 daqiqa davom etadigan ochilish marosimidan so'ng Xalqaro olimpiadaning 1-bosqichi - Test sinovlarini o'tkazish boshlanadi. Shu vaqtning o'zida talabalar elektron pochtafiga tashkilotchi tomonidan yuvorilgan havola orqali Google test tizimiga kirishlari lozim bo'ladi. Yuborilgan testlarni yechish uchun talabalarga 30 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan vaqt ichida talabalar dastlabki 5 daqiqa davomida shaxsiy ma'lumotlarni (famillyasi, ismi, otasining ismi, ayni paytda sistiqomat qilib kelayotgan mamlakati, tahsil olayotgan OTM nomi, kursi va elektron pochta manzili) kiritish va qolgan 25 daqiqa davomida tegishli fanlar bo'yicha Mas'ul komissiya tomonidan belgilangan 25 ta test topshiriqlariga javob berishlari lozim.

Test savollarini yechish uchun ajratilgan vaqtdan so'ng Google test tizimiga kirish avtomatik ravishda yopiladi. Test savollarining har bir to'g'ri javobi uchun 4 ball beriladi. Maksimal 100 ballni tashkil qiladi. 72 ball va undan yuqori ballni to'plagan birinchi 15 ta talabalar 2-bosqichga o'tishadi.

Test sinovidan muvaffaqiyatlil o'tgan talabalarga tegishli fan bo'yicha mas'ul tomonidan ochilgan Zoom platformasining xavolasi elektron pochtaga yuboriladi.

2-bosqichda vaziyatli masalalar yechishdan iborat bo'lib, TTA rektorining buyrug'i bilan tasdiqlangan TTAdan 50 foiz va boshqa OTMlardan 50 foiz professor-o'qituvchilardan iborat Hakamalar hay'ati a'zolari boshchiligidagi ZOOM platformasida onlayn shaklda o'tkaziladi.

Vaziyatli masalar talabalar o'zi tanlagen tartib raqamiga tegishli vaziyatli masala ekranda taqdimot ko'rinishida ko'rsatiladi. Shakllangan ro'yxat bo'yicha talabalar tomonidan tanlangan 1-15 raqamlariga tegishli vaziyatli masala va unga berilgan 3 ta savolga, shunindek Hakamlar a'zolarining qo'shimcha ikkitagacha savoliga javob berishi uchun xar bir talaba uchun 10 daqiqa beriladi. 2-bosqich yakunida fan ma'sullari tomonidan Hakamlar a'zolari yuborilgan baholash varaqalariga 100 ballik tizimda baholar qo'yilgandan keyin jamlanib, o'rtacha ball hisoblanadi. 2-bosqichda eng yuqori ball to'plagan 10 ta talabaga 3-bosqichga ishtirok etishga ruxsat beriladi.

3-bosqich "Blits so'rov" deb nomlanib, unda Xalqaro olimpiada qatnashchilari 1 daqiqa davomida 10 ta savolga javob beradi, xar bir to'g'ri javob uchun 10 balldan beriladi. Mazkur bosqich 100 ballik tizim bo'yicha baholanadi.

Fan mas'ullari tomonidan xar uchala bosqich umumiylari ballari hisoblanadi.

3.6. Hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan ishtirokchi talabalarni baholash alohida yaratilgan videokonferensiya dasturi yoki telegram-kanal orqali amalga oshiriladi. Olimpiada natijalari oxirgi ishtirokchining himoyasi tugagandan keyin 2 soat ichida e'lon qilinadi.

3.7. TTAda tibbiyot OTM talabalari o'rtasida o'tkaziladigan Xalkaro olimpiada jonli video konferensiya ZOOM tizimi orqali onlayn tarzda o'tkazilayotganligini sababli unda ishtirok etish istagini bildirgan talabalar va ularning ilmiy rahbarlari (har birlari alohida) shaxsiy noutbuk, kompyuter yoki mobil telefon qurilmalariga ZOOM videokonferensiya tizimidan foydalanish imkoniyatini beradigan dasturni va ilovalarni yuklab ollshi hamda uni texnik soz holatda bo'lishini ta'minlashlari zarur.

3.8. Xalqaro olimpiada hujjatlarini, ishtirokchilar bajaradigan ishlarni, tarqatma metieriallarni qabul qilishda, almashishda va hakamlar hay'at a'zolari o'zaro muloqat o'rnatishda boshqa aloqa tizimlari (telegram) ham qo'llanilishi ko'zda tutilgan.

Talabalar berilgan topshiriqqa tayyorgarlik ko'rayotgan va unga javob berayotgan vaqtida ularning yonida hyech kim bo'lmasligi va halaqit bermasligi talab etiladi.

Xalqaro olimpiadada ishtirok etayotgan barcha tibbiyot OTMlari yuqoridagi masalalar yuzasidan talabalar va ularning ilmiy rahbarlariga shart-sharoitlar yaratib berishi va nomaqbul ishlarni oldini olishlari zarur.

3.9. Tashkiliy komissiya a'zolari bevosita talabalar tomonidan bajarilayotgan ish jarayonini onlayn tarzda kuzatib borishadi.

3.10. Xalqaro olimpiada o'tkazilgan fan bo'yicha test va topshiriqlar natijalari Tashkiliy komissiya tomonidan 24 soat ichida taqdim etilgan ma'lumotlar asosida TTAning rasmiy veb-sayti va boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida e'lon qilinadi.

3.11. Xalqaro olimpiada ishtirokchilarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyati va qurilmalaridagi texnik nosozliklar bo'yicha shikoyat va arizalar ko'rib chiqilmaydi.

3.12. Xalqaro olimpiadani o'tkazish jarayoni va natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari, TTA rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanallarida yoritiladi.

#### **IV-bob. Xalqaro olimpiada g'oliblarini aniqlash**

4.1. Xalqaro olimpiada g'oliblari 3 ta bosqich bo'yicha to'plagan umumiyl ballar jamlamasiga ko'ra Nizomning ilovasida berilgan shaxsiy varaqada kiritilgan va Fan bo'yicha masu'llar tomonidan tasdiqlangan yozuvlarga asosan aniqlanadi.

4.2. Barcha talabalar o'rtasida o'rnlarni taqsimlash Xalqaro olimpiada topshiriqlarida berilgan to'g'ri javoblar soniga hamda sarflangan vaqtining miqdoridan kelib chiqib, to'plangan ballar ketma-ketligi bo'yicha har bir fan bo'yicha 1, 2, 3- o'rnlar belgilanadi va elektron tarzda belgilanadi.

4.3. Xar bir fan bo'yicha agarda 1, 2, 3- o'rnlarga nomzodlar tomonidan to'plangan ballar teng bo'lib qolganda 1-o'rın uchun 2 ta, 2-o'rın uchun 2 ta, 3 o'rın uchun 3 tadan g'olib belgilanishi mumkin.

4.4. Xalqaro olimpiadada faol ishtirok etgan talabalarga tegishli fanlar bo'yicha "Yorqin istiqbollar", "Olimpiada topshiriqlarini hal qilishda ijodiy yondashuv uchun", "Eng yaxshi klinik fikrlash", "Eng chaqqon ishtirokchi", "Vaziyatli masalaning eng yaxshi talqini", "Professionallik sifat egasi", "Eng yaxshi blits javoblar", "Eng bilimdon talaba", "Faol ishtiroki uchun", "Maqsadga erishishda mustahkam iroda va noyob qobiliyat egasi" nominatsiyalari g'oliblariga sertifikatlar taqdim etiladi.

#### **V-bob. Xalqaro olimpiada g'oliblari, ularning rahbarlari va ishtirok etgan barcha talabalarni taqdirlash hamda rag'batlantirish.**

5.1. Xalqaro olimpiada yakunlari bo'yicha TTAning tegishli buyrug'i asosida quyidagilar taqdirlanadi hamda rag'batlantiriladi:

– Xalqaro olimpiadaganing tegishli yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lgan talabalar TTAning I, II, III darajali diplomlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi. Diplomlar va eesdalik sovg'alari g'oliblarning yashash manziliga pochta xizmatlari orqali yuboriladi.

- Xalqaro olimpiadada g'olib bo'lgan TTA talabalari diplom, esdalik sovg'a bilan taqdirlanadi va TTAning Ilmiy kengashi qarori bilan tasdiqlangan mezonlar bo'yicha Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan rag'batlantiriladi.
- Xalqaro olimpiadada g'olib bo'lgan TTA talabalarining ilmiy rahbarlari TTAning Ilmiy kengashi qarori bilan tasdiqlangan mezonlar bo'yicha TTAning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantiriladi.
- Xalqaro olimpiadada eng faol ishtirok etgan talabalarga tegishli fanlar bo'yicha mazkur Nizomnining 4.4.- bandida belgilangan nominatsiyalar g'oliblariga sertifikatlar talabalarning yashash manziliga pochta xizmati orqali yuboriladi.
- Xalqaro olimpiada qatnashgan barcha talabalarning elektron pochta manziliga ishtirokchi sertifikatlari yuboriladi.

#### **VI-bob. Nizolarni ko'rib chiqish tartibi**

6.1. Xalqaro olimpiada natijalari e'lon qilingandan so'ng 24 soat ichida tushgan yozma shikoyat va arizalar Tashkiliy komissiya tomonidan onlayn shaklda O'zbekiston Respublikasi "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq ko'rib chiqiladi.

#### **Eslatmalar:**

6.2. Agarda Xalqaro olimpiadada ishtirok etayotgan talaba fan olimpiadasi davom etayotgan davrda o'zi yoki u tahsil olayotgan OTM tomonidan yo'l qo'yilgan texnik nosozliklar sababli onlayn aloqadan chiqib ketsa, ZOOM platformasidagi profillariga familiyasi, ismi, otasining ismini to'liq yozmasa, ZOOM platformasida javob berish jarayonida profil tasvirini o'chirib qo'ysa, Xalqaro olimpiadani o'tkazish jarayonida ilmiy rahbari yoki boshqa shaxslardan yordam olsa, tayyor (oldindan tayyorlab qo'yilgan) loyihalardan foydalanishga urinsa va shu kabi nomaqbul ishlarni amalga oshirsa, bu holatda shaffoflik va haqqoniylilikni ta'minlash maqsadida ishtirokchi talaba Xalqaro olimpiadadan chetlashtiriladi va bu to'g'risida bayonnomalar rasmiylashtiriladi.

Ushbu holat kelgusida boshqa OTMlarida takrorlanmasligini ta'minlash maqsadida nomaqbul harakatni amlaga oshirgan talaba va u tahsil olayotgan OTM rahbariyatiga qat'iy chora ko'rish haqida tegishli mamlakatning Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligiga rasmiy xatlar bilan murojaat qilinadi.

#### **VII-bob. Xalqaro olimpiadani yakunlash tartibi**

7.1. **Fanlar bo'yicha mas'ullar tomonidan** barcha fanlar bo'yicha Xalqaro olimpiada natijalari to'g'risidagi hisobotlar yozma va elektron shaklda tasdiqlanga holda **2022-yil 26-mart sanasiga TTAning** Iqtidorli talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limiga taqdim qilinadi.

7.2. Iqtidorli talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi tomonidan Xalqaro olimpiada natijalari jamlanib, unga oid ma'lumotlar 5 kun muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Fan va ta'lim boshqarmasiga hisobot taqdim etiladi.

“Avitsenna izdoshlari” II Xalqaro  
fan olimpiadasini o‘tkazish tartibi  
to‘g‘risida nizomga ilova

**Xalqaro onlayin fan olimpiadasida talabalarni baholash mezonlari**

Fan \_\_\_\_\_ Seksiya \_\_\_\_\_

Shaxsiy hisoblar varaqasi № \_\_\_\_\_

№	Ishtirokchi-ning F.I.O. (to‘liq ko‘rsatilishi lozim)	I bosqich TEST sinovlari dastur tomonidan avtomatik ravishda baholanadi (100 ball)	II bosqich Vaziyatli masalalar yechimi (100 ball)	III bosqich Blis savollar 1daqiqada savollarga javoblar beriladi. Xar bir to‘g‘ri javob uchun 10 balldan beriladi.	Umumiy ball										
					1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	

Hakamlar hayatı F.I.Sh. \_\_\_\_\_

imzo

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
2022 yil “17 mart” dagi  
90-sonli buyrug’iga 2-ilova

**“Avitsenna izdoshlari” II Xalqaro onlayn fan olimpiadasini  
DASTURI**

2022 yil 25 mart

10-00	Ochilish marosimi	
10-05	<i>Tabrik so‘zi</i>	<i>Shadmanov Alisher Kayumovich</i> Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori
10-10	<i>Tabrik so‘zi</i>	<i>Esanov Muzaffar Hoshimovich</i> O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktori o‘rinbosari
10-15	<i>Tabrik so‘zi</i>	<i>Shagin Dmitriy Alekseevich</i> N.I.Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetining innovatsion faoliyat bo‘yicha prorektori
10-20	<i>Tabrik so‘zi</i>	<i>Mindaugas Paulukas</i> Vilnyus universiteti rektorining maslahatchisi
10-25	<i>Tabrik so‘zi</i>	<i>Shahinya Karamatova</i> CDC - AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari rahbari
10-30	<i>Tabrik so‘zi</i>	<i>Korneliya Bekker</i> Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati – GIZ vakolatxonasi loyiha menejeri
10-35	<i>Tabrik so‘zi</i>	<i>Elmira Wieser</i> Shveytsariyaning Vil psixiatriya kasalxonasida Gerantopsixiatriya bo‘yicha mutaxassis.
10-40	<i>Olimpiadani o‘trazish tartibi haqida ma’lumot</i>	
10-45	<i>Olimpiada hakamlar hay’ati a’zolarining tegishli fanlar bo‘yicha Zoom platformasiga taklif этилдиш</i>	

**1-Yo‘nalish: Terapiya**

10.30	1-bosqich	Testlarni yechish
11.00	2-bosqich	Vaziyatli masalani yechish
13.30	3-bosqich	Blits-savollarga javoblar

**2-Yo‘nalish: Klinik tor mutaxassisliklar**

10.30	1-bosqich	Testlarni yechish
11.00	2-bosqich	Vaziyatli masalani yechish
13.30	3-bosqich	Blits-savollarga javoblar

**3-Yo‘nalish: Xirurglya**

10.30	1-bosqich	Testlarni yechish
11.00	2-bosqich	Vaziyatli masalani yechish
13.30	3-bosqich	Blits-savollarga javoblar

**4-Yo‘nalish: Ona va bola muhofazasi**

10.30	1-bosqich	Testlarni yechish
11.00	2-bosqich	Vaziyatli masalani yechish
13.30	3-bosqich	Blits-savollarga javoblar

**5-Yo‘nalish: Tibbiy biologiya**

10.30	1-bosqich	Testlarni yechish
11.00	2-bosqich	Vaziyatli masalani yechish
13.30	3-bosqich	Blits-savollarga javoblar

**6-Yo‘nalish: fundamental fanlar**

10.30	1-bosqich	Testlarni yechish
11.00	2-bosqich	Vaziyatli masalani yechish
13.30	3-bosqich	Blits-savollarga javoblar

**7-Yo‘nalish: Tibbiy profilaktika**

10.30	1-bosqich	Testlarni yechish
11.00	2-bosqich	Vaziyatli masalani yechish
13.30	3-bosqich	Blits-savollarga javoblar
15-00	Yopilish marosimi	

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
2022 yil 14 mart dagi  
90-sonli buyrug'iga 3-ilova

**"Avitsenna izdoshlari" II Xalqaro onlayn fan olimpiadasini  
o'tkazish bo'yicha Tashkiliy komissiya  
TARKIBI**

Nº	F.I.O.	Lavozimi	Tashkiliy komissiyadagi o'rni
1	A.K.Shadmanov	Rektor	Tashkiliy komissiyaning raisi
2	F.L. Azizova	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor	Rais o'rinnbosari
3	F.B.Abdumalikova	Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i	Mas'ul kotib
4	Sh.A.Boymuradov	O'quv ishlar bo'yicha prorektor	A'zo
5	J.J. Isroilov	Xalqaro aloqalar bo'yicha propertor	A'zo
6	T.A.Bobomuratov	Yoshlar masalalari va ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha	A'zo
7	Sh.Sh. Massavirov	O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i	A'zo
8	J.A.Umarov	TTA "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" boshlang'ich tashkiloti vakili	A'zo
9	B.T. Xalmatova	1 - son Davolash fakulteti dekani	A'zo
10	A.A. Hamraev	Tibbiy pedagogika fakulteti	A'zo
11	F.I. Salomova	Tibbiy profilaktika fakulteti dekani	A'zo
12	U.E.Eraliev	Menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muxandisligi fakulteti	A'zo
13	N. M. Nurillayeva	1-son ichki kasalliklar kafedrasi mudiri	A'zo
14	D. A.Nabiyeva	1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi kafedrasi mudiri	A'zo
15	A.A.Jabborov	2-son fakultet va gospital terapiya kafedrasi mudiri	A'zo
16	X.T. Miraxmedova	1-son ichki kasalliklari propedevtikasi, nefrologiya va gemodializ kafedrasi mudiri	A'zo
17	A. V.Yokubov	Klinik farmakologiya kafedrasi mudiri	A'zo
18	Z.Sh.Ashurov	Psixiatriya va narkologiya kafedrasi mudiri	A'zo
19	A.A.Usmonxujayeva	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasi mudiri	A'zo
20	G.S. Raximbayeva	Nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi mudiri	A'zo
21	U.A. Tashkenbayeva	Dermatovenerologiya kafedrasi mudiri	A'zo
22	L.N. Tuychiyev	Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasi mudiri	A'zo
23	A.B. Saidov	Gematologiya, transfuziologiya va klinik laboratoriya kafedrasi mudiri	A'zo
24	N.K. Ibragimov	Anesteziologiya va reanimatologiya kafedrasi mudiri	A'zo
25	Sh.M.Xakimov	1-son fakultet va gospital xirurgiya kafedrasi mudiri	A'zo

26	M.Yu. Karimov	I-son Travmatologiya kafedrasi mudiri	A'zo
27	F.I.Shukurov	I-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi mudiri	A'zo
28	J.X. Tursunov	Tibbiy-biologik kimyo kafedrasi mudiri	A'zo
29	X.Z. Tursunov	Patologik anatomiya kafedrasi mudiri	A'zo
30	R.J Usmanov	Odam anatomiysi va klinik anatomiya kafedrasi mudiri	A'zo
31	M.I..Bazarbayev	Biotibbiyat muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasi mudiri	A'zo
32	S.D. Norqulov	Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri	A'zo
33	R.M.Abdullayeva	O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi mudiri	A'zo
34	R.N. Melibaeva	Pedagogika va psixologiya kafedrasi kafedrasi mudiri	A'zo
35	G K. Xudaykulova	Jamoat salomatligi va menejment kafedra mudiri, t.f.d.	A'zo
36	I.I. Baxriev	Sud-tibbiyat ekspertizasi bo'limi kafedrasi mudiri	A'zo
37	G.T. Iskandarovna	Kommunal gigiena va mehnat salomatligi kafedrasi mudiri	A'zo
38	G.S. Matnazarova	Epidemiologiya kafedrasi mudiri	A'zo
39	N.Ж. Ermatov	Bolalar, o'smirlar gigienasi va oziq-ovqat gigiyenasi kafedrasi mudiri	A'zo
40	N.T.Yodgorova	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya kafedrasi dostenti	A'zo
41	X.B. Nurbayeva	Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi uslubchisi	A'zo

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
 2022 yil "17 mart" dagi  
90-sonli buyrug'iga 4-ilova

**"Avitsenna izdoshlari" Xalqaro olimpiada hakamlar hay'at a'zolari**

**TARKIBI**

Nº	F.I.O.	Lavozimi
1	N.I.Po'latova	Klinik farmakologiya kafedrasi dostenti Bo'lim-1
2	M. M. Yoqubova	Nevrologiva va tibbiy psixologiya kafedrasi professori Bo'lim -2
3	D. K. Rasulova	Nevrologiva va tibbiy psixologiya kafedrasi dostenti Bo'lim -2
4	K.J.Matmurodov	I-son Umumiy va bolalar xirurgiya kafedrasi assistenti t.f.d. Bo'lim -3
5	M.D.Abdurazoqova	I-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasi assistenti Bo'lim -4
6	Z.N.Orinbayeva	Mikrobiologiya, virusologiya, immunologiya kafedrasi assistenti. Bo'lim -5
7	F.S.Atamuratova	Igtimoiy fanlar kafedrasi dostenti Bo'lim -6
8	N.U. Ne'matova	Epidemiologiya kafedrasi katta o'qituvchi Bo'lim -7
9	M.T.Zubaydullaeva	I-son Ichki kasalliklar kafedrasi dostenti
10	F.K.Ziyaeva	I-son Fakultet va gospital terapiya kafedrasi assistenti
11	Sh.A.Kadirova	2-son Fakultet va gospital terapiya kafedrasi katta o'qituvchi
12	A.M.Rahmatov	2-son Fakultet va gospital terapiya kafedrasi assistenti
13	S.Sh.Egamova	I-son Ichki kasalliklari propedevtikasi, nefrologiya va gemodializ kafedrasi assistenti
14	Sh.S.Oripjonova	Klinik farmakologiya kafedrasi assistenti
15	R.K.Userbayeva	Psixiatriya va narkologiya kafedrasi assistenti
16	U.Sharipov	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasi assistenti
17	U.D.Chodiev	Nevrologiva va tibbiy psixologiya kafedrasi assistenti
18	F.X.Abbosxonova	Dermatovenerologiya kafedrasi assistenti
19	Sh.B.Rahmatullaeva	Yuqumli kasalliklar kafedrasi dotsenti
20	D.A.Raimova	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi assistenti
21	B.Yu.Yusupova	Anesteziologiya va reanimatsiya kafedrasi assistenti
22	Sohiboev D.P	I-son Fakultet va gospital xirurgiya kafedrasi assistenti
23	N. Qobilov	Travmatologiya kafedrasi assistenti
24	M.D.Abdurazoqova	I-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasi assistenti
25	D.T.Abdullaeva	I-son Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrasi assistenti
26	N.F. Nurmatova	Bolalar kasalliklari kafedrasi assistenti
27	M.T.Abdullaeva	Tibbiy va biologik kimyo assistenti
28	I.M.Allanazarov	Patologik anatomiya kafedrasi dotsenti
29	L.A.Shigakova	Tibbiy biologiya kafedrasi assistenti
30	X.X.Po'latov	Anatomiya va klinikalar anatomiya kafedrasi assistenti
31	V.P.Ubaydullaeva	Tibbiyotda axborot texnologiyalari va biofizika kafedrasi assistenti
32	N.I.Bekchanova	Klinik laboratoriya diagnostikasi kafedrasi assistenti
33	N.A.Asqarova	Pedagogika va psixologiya kafedrasi assistenti
34	T.R.Bekmirov	Pedagogika va psixologiya kafedrasi assistenti
35	G.F. Sherkuziyeva	Kommunal va mehnat gigiyena kafedrasi dotsenti
36	N.J. Ermatov	Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi kafedrasi mudiri

37	M.R. Mirsagatova	Atrof muhit gigiyena kafedrasi assistenti
38	Salohiddinov F.B.	TTA, I-son travmatologiya, ortopediya va HDJ t.f.n., assistent
39	Nazarova N.Z.	TTA, I-son travmatologiya, ortopediya va HDJ t.f.n., dotsent
40	Ismoilov NO	TTA, I-son travmatologiya, ortopediya va HDJ t.f.n., assistent
41	Hakimov M.Sh	TTA, fakultet va gospital jarrohlik kafedrasi mudiri, t.f.d., professor
42	Oxunov A A	TTA. Umumiy jarrohlik kafedrasi mudiriy kafedrasi, t.f.d., professor
43	Teshaev O R	TTA ,UASH xirurgik kasalliklar kafedrasi, kafedra mudiri, t.f.d., professor
44	Masharipov S M	TTA Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi professori, k.f.d.
45	Tadjiyeva X S	TTA Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi dotsenti, k.f.n.
46	Sadiqova Z Sh	TTA Odam anatomiyasi, klinik anatomiya kafedrasi dotsenti
47	Axmedova SM	TTA Odam anatomiyasi, klinik anatomiya kafedrasi dotsenti
48	V.G.Maxsudov	TTA, Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasi katta o'qituvchisi
49	B.Y.Abdukadirova	TTA. Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasi kafedrasi assistenti
50	I.Mullajonov	TTA, Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasi, f.m.f.n., dotsent
51	A.Z.Sobirjonov	TTA. Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasi katta o'qituvchisi
52	Babadjanova ShA	TTA, Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi professori.
53	Kurbanova Z Ch	TTA, Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi dotsenti
54	Bekchanova N I	TTA, Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasi assistenti
55	Norkulov SD	TTA Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.d., dotsent.
